

## **YURIDIK SHAXSLAR VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARIGA CHET EL VALYUTASINI SOTISH VA SOTIB OLIH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Ushbu bilan, “Mikrokreditbank” ATB (bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiladi) yuridik shaxslar va tadbirkorlik sub'ektlariga (bundan buyon shartnoma matnida “Mijoz” deb yuritiladi) masofadan turib chet el valyutalarini sotish va sotib olish bo'yicha ommaviy elektron oferta shartnomasini (bundan buyon shartnoma matnida “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzishni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq taklif qiladi.

Mijoz tomonidan mazkur Shartnomani aktseptlash chet el valyutalarini sotish va sotib olish to'g'risidagi buyurtmani taqdim etish orqali amalga oshirilib, ushbu orqali Mijoz mazkur shartnomada ko'rsatilgan tartibda va hajmda bank bilan ushbu shartnomani tuzishga roziligini bildirgan hisoblanadi.

Mijoz mazkur Shartnoma matni bilan Bankning korporativ veb-saytida, Internet bank, Mobil bank hamda Bank ofislarida tanishib chiqishi mumkin.

### **I. SHARTNOMADA FOYDALANILADIGAN ATAMALAR**

1.1. Mazkur Shartnomada quyidagi atamalardan foydalaniladi:

**Bank hisobvarag'i** — bank hisobvarag'i shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisobvara egasi) hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvarag'idagi tegishli mablag'larni o'tkazish va to'lash hamda hisobvara bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risidagi topshiriqlarni bajarish vazifasini o'z zimmasiga olishi natijasida bank va mijoz o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni amalga oshirish vositasi.

**Maxsus hisobvara** — mijozlarning valyuta bozorida konvertatsiya qilingan mablag'lari va valyuta bozorida konvertatsiya qilish uchun mijozlarning zaxiralangan mablag'larining hisobi yuritiladigan hisobvara.

**Masofaviy bank xizmatlari** – “Internet-bank” va “Mobil-bank” tizimidan foydalanish xizmat turlari.

**“Internet-bank” xizmati** – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo'lib, mijozga internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda uning bankdagi hisobvarag'iga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkonini beruvchi xizmat turi hisoblanadi.

**“Mobil-bank” xizmati** – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo'lib, mijozga internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'i orqali “IOS”, “Android” yoki “JAVA” operatsion tizimlarida ishlaydigan mobil telefoni yoki planshetidan foydalangan holda bankdagi hisobvarag'iga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkonini beruvchi xizmat turi hisoblanadi.

**Chet el valyutasini sotib olish va sotish** - milliy valyutani bankka sotish yo'li bilan chet el valyutasini olish yoki bank tomonidan operatsiyani amalga oshirish kunidagi belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasini sotish yo'li bilan milliy valyutani olish.

**Buyurtma** – chet el valyutasini sotib olish yoki sotish uchun masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda yuboriladigan ariza.

### **II. SHARTNOMA PREDMETI VA BITIM TURI**

2.1. Mazkur shartnoma bank tomonidan mijozning chet el valyutalarini sotish va sotib olish to'g'risidagi buyurtmaga ko'ra va amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq, tomonlarning ichki valyuta bozorida chet el valyutasi oldi-sotdisi bo'yicha o'zaro aloqalarni tartibga soladi va quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi.

2.1.1. Bitim turi (xarakteri): birjadan tashqari valyuta bozorida “Bank” tomonidan “Mijoz”ning buyurtmasiga asosan ularga chet el valyutasini sotadi va sotib oladi.

2.1.2. Bitim valyutasi (valyuta turi): Mijoz tomonidan bankka taqdim etiladigan buyurtmada ko'rsatiladi.

2.2. "Mijoz" tomonidan chet el valyutasini sotib olganda hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi:

2.2.1. "Mijoz" "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining hududiy bo'linmalarida ochilgan 22613000%-sonli maxsus hisobraqamiga har bir buyurtma uchun kerakli miqdorda so'm qoplanma o'tkazib beradi.

2.2.2. "Bank" "Mijoz"ning yuqorida keltirilgan 22613000%-sonli hisobraqamidan so'm mablag'larni yechib oladi va buyurtmaga asosan tegishli miqdordagi chet el valyutasini "Mijoz"ning "Bank"dagi konvertatsiya uchun maxsus 22614% sonli valyuta hisobraqamiga o'tkazib beradi.

2.2.3. "Bank" va "Mijoz" o'rtasida hisob-kitoblarni bank tomonidan buyurtmani taqdim etilgan kundan keyingi bank ish kunida hisob kitoblar amalga oshiriladi.

2.3. "Mijoz" tomonidan chet el valyutasini sotishda hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi:

2.3.1. "Bank" "Mijoz"ning buyurtmada ko'rsatilgan xorijiy valyutadagi hisobraqamidan chet el valyutasini yechib oladi va buyurtmaga asosan bank tomonidan belgilangan kurs asosida Mijozning buyurtmada ko'rsatilgan milliy valyutadagi hisobraqamiga so'm mablag'larini o'tkazib beradi.

2.3.2. "Bank" va "Mijoz" o'rtasida hisob-kitoblarni buyurtma taqdim etilgan kundan keyingi bank ish kuni ichida hisob kitoblar amalga oshiriladi.

### **III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **3.1. Mijozning huquqi:**

3.1.1. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Bankdan xizmatlar olish uchun buyurtmalarni taqdim etish;

3.1.2. Bankdan, taqdim etilgan buyurtmalarning bajarilishi to'g'risida ma'lumot olish;

3.1.3. Taqdim etilgan buyurtmalarni bank tomonidan rasmiylashtirilgunga qadar qaytarib olish;

3.1.4. Ilgari yuborilgan buyurtmalarga muvofiq Bank bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirgan holda ushbu Ofertani bekor qilish;

3.1.5. Bankka jismoniy buyurtma topshirmasdan barcha alternativ kanallaridan foydalanish (masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari Mobil-bank va Internet bank orqali elektron ko'rinishda ham taqdim qilinishi mumkin).

#### **3.2. Mijozning majburiyatlari:**

3.2.1. Bankning maxsus shakldagi "Xorijiy valyutani sotib olish va sotish uchun buyurtma"sini tegishli tartibda rasmiylashtirish;

3.2.2. "Bank"ga buyurtma taqdim etishdan avval, sotib olinishi so'ralayotgan chet el valyutasiga teng bo'lgan so'm mablag'larini maxsus hisobraqam (blok-schet)ga o'tkazish va sotilishi so'ralayotgan chet el valyutalari hisobraqamda qoldiq mavjudligini ta'minlash;

3.2.3. Tuzilgan shartnomalarga asosan "Mijoz" hisobraqamiga o'tkazilgan valyuta mablag'laridan qat'iy ravishda buyurtmada belgilangan maqsadda foydalanish.

#### **3.3. Bankning huquqlari**

3.3.1. Mijozning buyurtmasini qabul qilishni rad etish, agar buyurtma bank tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilmagan bo'lsa, noto'g'ri shaklda to'ldirilsa hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qonun osti hujjatlariga zid bo'lgan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida buyurtma taqdim etsa;

3.3.2. Aktseptsiz ravishda Mijozning blok hisobvarag'ida zahirilangan pul mablag'laridan (milliy yoki chet el valyutasida) mijozning arizasida ko'rsatilgan miqdorda to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek Bank tariflariga asosan xizmat haqlarini undirish.

3.3.3. Mijoz Ofertani qabul qilish orqali, bankda ochilgan hisobvaraqlaridan komissiya yechish shuningdek, bank oldidagi kredit majburiyatlari bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda aktseptsiz ravishda tegishli operatsiyalarni amalga oshirishga roziligini bildiradi.

3.3.4. Bank operatsiyani amalga oshirish kunida bank kursini o'z ixtiyoriga ko'ra belgilash.

#### **3.4. Bankning majburiyatlari:**

3.4.1. "Mijoz" buyurtmasini qabul qilish hamda qonunchilikda belgilangan tartib va muddatda buyurtmaning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish.

3.4.2. "Mijoz" tomondan taqdim etilgan buyurtma bo'yicha ijobiy xulosa qabul qilingan taqdirda, "Mijoz"ning buyurtmasi "Bank" tomonidan qondiriladi.

3.4.3. "Mijoz" hisobraqamiga o'tkazilgandan keyin, "Mijoz" tomonidan belgilangan muddatda, ya'ni, sotib olingan kundan boshlab 7 (yetti) bank ish kuni mobaynida foydalanilmagan valyuta mablag'larini "Mijoz"ning roziligisiz qayta sotish.

### **IV. NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI**

4.1. Mazkur shartnomani ijro etish masalalari bo'yicha Bank va Mijoz o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda tomonlar ularni o'zaro muzokaralar yordamida hal qilish uchun barcha choralarni ko'radilar. Mazkur shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizoni hal qilish uchun tomonlar o'z e'tirozlarini (talablarini) ikkinchi tomonga yozma tarzda yuborishlari shart.

4.2. Muzokaralar olib borish orqali taraflar bir to'xtamga kela olmaganda, bahslar va kelishmovchiliklar iqtisodiy sudda amaldagi qonunchilikka muvofiq ko'rib chiqiladi va hal etiladi.

4.3. Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar amaldagi qonunchilik asosida hal etiladi.

4.4. Mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibi tomonlar uchun majburiy hisoblanuvchi Markaziy bank normativ hujjatlari bilan belgilanadi.

### **V. FORS-MAJOR HOLATLARI**

5.1. Tomonlarning xohish-irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (ommaviy noroziliklar, urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash, xalqaro sanksiyalarning joriy etilishi va boshqalar), obyektiv to'sqinlik qiluvchi holatlar (epidemiya, pandemiya, karantin), texnogen ofatlar (yonginlar, portlashlar va boshqalar), infratuzilma tarmoqlaridagi (transport, energetika tizimlaridagi), favqulodda va keng miqyosdagi kutilmagan avariya, uzilishlar, xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan taxdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar fors-major holatlari hisoblanadi.

5.2. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyundagi 231-son qarori bilan tasdiqlangan Mahalliy xo'jalik shartnomalari doirasida yuzaga keladigan yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq Savdo-sanoat palatasi tomonidan berilgan fors-major holatlarni tasdiqlovchi sertifikat berilgan kundan e'tiboran tomonlar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

**5.3.** Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, fors-major holatiga tushgan tomon bu haqida ikkinchi tomonni belgilangan tartibda xabardor qilishi lozim.

**5.4.** Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar tomonlarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

## **VI. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR**

**6.1.** Taraflar mazkur Shartnornani bajarishda quyidagi harakatlarni amalga oshirmaslik, shuningdek o'z affillangan shaxslari va ishchilari ushbu harakatlarni bevosita yoki bilvosita amalga oshirmasligini ta'minlash majburiyatini oladi:

- mansabdor shaxslar, mansabdor shaxslarning qarindoshlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan ko'rsatilgan shaxslar, yoxud davlatga biron tarzda aloqador shaxslarga Taraflar, mazkur Shartnoma bo'yicha harakat qiluvchi ularning affillangan shaxslari va ishchilari uchun noqonuniy ravishda ustunliklarga ega bo'lish maqsadida pul vositalari to'lash yoki to'lashni taklif qilish yoki boshqa qimmatliklarni taqdim qilish, ishlar (xizmatlar)ni bepul bajarish va h.k.;

- rag'batlantiruvchi Taraf foydasiga biron-bir harakatlarni amalga oshirilishini (oqlanmagan ustunlik berish, biron-bir kafolatlar taqdim qilish, tegishli tartib-taomillarni tezlashtirish va h.k.) ta'minlash maqsadida boshqa Taraf ishchilariga, uning affillangan shaxslariga pul vositalari to'lash yoki to'lashni taklif qilish, yoki boshqa qimmatliklarni taqdim qilish, ishlar (xizmatlar)ni bepul bajarish va h.k.;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzuvchi, shu jumladan tijoratda pora evaziga og'dirib olish hamda biznesni yuritishning qonunga xilof va g'ayrihuquqiy boshqa harakatlar.

**6.2.** Agar Tarafda korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkinligi haqida gumonlari paydo bo'lsa, tegishli Taraf boshqa Tarafni bu haqda yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi va tegishli huquqbuzarlik sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi haqida boshqa Tarafning tasdiqnomasini olgunga qadar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari ijrosini to'xtatib turishga haqli. Tasdiqnomna yozma xabarnoma olingan sanadan 10 (o'n) bank ish kuni davomida yuborilishi lozim.

Yozma xabarnomalar "Mikrokreditbank" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens ishonch liniyasi" kanallari (**tel: 55-503-77-11, veb sahifa [www.mkb.uz](http://www.mkb.uz), elektron pochta manzili: [mkbanticor@mkb.uz](mailto:mkbanticor@mkb.uz), telegram-bot: [@mkbanticor\\_bot](https://t.me/mkbanticor_bot)**) orqali amalga oshiriladi.

**6.3.** Bir Taraf korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganda va/yoki boshqa Taraf huquqbuzarlik sodir bo'lmagan yoki sodir bo'lmasligi haqida o'rnatilgan muddatda tasdiqnoma olmagan taqdirda, boshqa Taraf shartnomani bekor qilish haqida yozma xabarnoma jo'natgan holda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Mazkur shartlar qoidalari asosida Shartnomani bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan Taraf, Shartnornani bekor qilish natijasida vujudga kelgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

## **VII. BOSHQA SHARTLAR**

**7.1.** Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilib, har 2 tomon imzolagan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

**7.2.** Ushbu shartnoma mijoz tomonidan masofaviy bank xizmatlari orqali chet el valyutasini sotib olish va sotish to'g'risida buyurtma taqdim qilgan kundan boshlab kuchga kiradi.